

Sharq allomalari merosidan foydalanib talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash mazmuni va bosqichlari

f.f.f.d (PhD) Ishanova Muhayyoxon Muxtarovna

Ijtimoiy gumanitar fanlar, pedagogika va psixologiya kafedrası v.b dotsenti

Annotatsiya: Sharq allomalari merosi vositasida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash ma'lum bir psixologik imkoniyatlarni taqdim yetadi. O'z-o'zini anglash, empatiya, o'zaro bog'liqlik, tana, aql va ruhning integratsiyasi va axloqiy tamoyillarga urg'u berish orqali o'qituvchilar o'z talabalari bilan ijobiy munosabatlar o'rnatishlari va yanada inkluziv va qo'llab-quvvatlovchi ta'lim muhitini yaratishga erishadilar. Ushbu muhitni ta'milashda ta'lim jarayonini belgilovchi o'ziga xos qonunlari mavjud.

Kalit so'zlar: inkluziv, psixologik yo'naltirilganlik, ruhning integratsiyasi kasbiy, ijtimoiy, samarali muloqot shakllari, tarbiyaning murakkab tabiati, ijtimoiy muhit, psixologik omillar.

Аннотация: Подготовка учащихся к семейной жизни посредством наследия восточных учёных открывает определённые психологические возможности. Подчеркивая самосознание, эмпатию, взаимозависимость, интеграцию тела, разума и духа, а также этические принципы, педагоги могут устанавливать позитивные отношения со своими учениками и создавать более инклюзивную и благоприятную образовательную среду. Существуют определённые закономерности, определяющие образовательный процесс при создании такой среды.

Ключевые слова: инклюзивность, психологическая направленность, интеграция души, профессиональная, социальная, эффективные формы коммуникации, комплексный характер образования, социальная среда, психологические факторы.

Annotation: Preparing students for family life through the heritage of Eastern scholars offers certain psychological opportunities. By emphasizing self-awareness, empathy, interdependence, integration of body, mind, and spirit, and ethical principles, educators can establish positive relationships with their students and create a more inclusive and supportive learning environment. There are specific laws that determine the educational process in creating this environment.

Keywords: inclusive, psychological orientation, integration of the soul, professional, social, effective forms of communication, the complex nature of education, social environment, psychological factors.

Kirish. Sharq allomalari merosini umumiy pedagogika fani o'qitishda qo'llash metodikasining amaliy jihatlari

Pedagogika tarixini o'rganish: Sharq allomalarining qarashlari, ularning ta'lim-tarbiya tizimlari haqida batafsil ma'lumot berish.

Maqollar, hikmatli so'zlar, rivoyatlar:

Maqollar va hikmatli so'zlar orqali oilaviy hayotga oid muhim qadriyatlarni, axloqiy me'yorlarni talabalarga anglatish.

Oilaviy hayot bilan bog'liq rivoyatlar va hikoyalarni tahlil qilib, talabalarni ulardan xulosa chiqarishga yo'naltirish.

Sharq allomalarining asarlarini o'rganish:

Ta'lim va tarbiya: Abu Nasr Farabiy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Imom G'azoliy kabi allomalarning ta'lim va tarbiya haqidagi fikrlarini o'rganish.

Oilaviy hayot: Abu Homid G'azzoliyning "Kimyoi saodat", "Ihyo ul-ulum" kabi asarlarida

oilaviy hayotni yo'lga qo'yish, er-xotin o'rtasidagi munosabatlar, farzand tarbiyasi kabi mavzularni tahlil qilish.

Axloqiy tarbiya: Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar xazinasi", Navoiyning "Muhabbatnoma" kabi asarlaridagi axloqiy qoidalarni amaliyotga tatbiq etish.

Muhokama va munozaralar: Sharq allomalarining oilaviy hayotga oid qarashlari haqida talabalar bilan muhokama va munozaralar o'tkazish.

Ijodiy topshiriqlar: Talabalarga oilaviy hayotga oidmaqollar, hikmatli so'zlar, rivoyatlarni yig'ish, tahlil qilish vataqdimot tayyorlash.

4. Metodining samaradorligini oshirish yo'llari[87].

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash:

Interaktiv usullar, taqdimotlar, videolavhalar yordamida talabalarda qiziqish uyg'otish.

Onlayn platformalar orqali muhokamalar va munozaralar tashkil etish.

Amaliy tajribalar:

Oilaviy hayotga oid mavzular bo'yicha amaliy treninglar, rol o'ynash o'yinlari tashkil etish.

Talabalarni oilaviy mavzulardaesse yozish, ma'ruza qilishga jalb qilish.

Oilaviy muhitni tarbiyalash:

Talabalarni oilaviy qadriyatlarini saqlash, farzandlarni tarbiyalash va er-xotin o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga yo'naltirgan tadbirlar o'tkazish.

Oilaviy tarbiya bo'yicha mutaxassislar, oila psixologlarini taklif etib, ma'ruzalar, master-klavsslar o'tkazish.

Individual yondashuv:


Talabalarining shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlarini hisobga olib, ularga individual yondashuv qo'llash.

Sharq mutafakkirlari ilmiy merosi vositasida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy pedagogik zaruriyati shaxs va oila rivojiga imkon yaratuvchi jamiyat barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan qadriyatlarga ta'sir etuvchi ijtimoiy tendensiyalarga moslashuvi ilmiy-nazariy, tarixiy-aksiologik tahlillar asosida aniqlashtirgan holda oliy ta'lim jarayonida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashda Sharq allomalari merosidan foydalanishning takomillashtirilgan metodik mazmunini quyidagicha tizimlashtirdik (2.1.4 rasmga qarang). Sharq allomalarining ilmiy, ma'naviy merosi inson tarbiyasi, oila qadriyatlari va jamiyat rivoji haqida boy va chuqur fikrlarni o'z ichiga oladi. Ushbu merosdan foydalanish orqali talabalarda oila hayoti va oilaviy munosabatlarga bo'lgan qadriyatni shakllantirish tizimi quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

Talabalarining oila hayoti bilan bog'liq tushunchalarini kuzatib borish: Talabalarining oila hayoti haqidagi tushunchalarini baholash uchun turli testlar va so'rovnomalari o'tkazish. Oila hayoti bilan bog'liq muammolarni hal qilishga yordam berish: talabalar uchun psixologik maslahatlar va konsultatsiyalar tashkil etish.

Oila hayoti bilan bog'liq muvaffaqiyatli misollarni ko'rsatish: talabalarga oila hayoti bilan bog'liq muvaffaqiyatli misollarni ko'rsatish, ularni oilaviy hayotga ishonch va ishtiyoq bilan qarashga undash.

Sharq allomalari merosidan foydalanish orqali talabalarda oila hayoti va oilaviy munosabatlarga bo'lgan qadriyatni tarbiyalash mumkin. Bu jarayon talabalarining ma'naviy rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ularni baxtli va barqaror oilalarni yaratishga tayyorlaydi



Oliy ta'lim jarayonida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashga bo'lgan bunday kompleks yondashuv yoshlarni yetuk oila a'zolariga aylantirishga, ularni yetuk oila a'zosi sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Talabalarining oilaviy hayotga kompleks tayyorgarligi ularning nikohgacha va keyingi oilaviy hayotlarida sog'lom, barqaror munosabatlarni shakllantirish imkonini beradi. Kompleks yondashuv, bilim va amaliy ko'nikmalarni uyg'unlashtirish - oilaviy hayotgatayyorlashning samarali yo'li hisoblanadi. Buning uchun tegishli o'quv dasturlari, mashg'ulotlar va keng ma'naviy-axloqiy ta'lim zarur.

Mamlakatimizda asosiy e'tiborni eng katta investitsiya bo'lgan sifatli ta'limga qaratish, zamonaviy ta'lim-tarbiya berish orqali talabalarda erkin va kreativ fikrlash, jamoada ishlay olish va muloqot qilish ko'nikmalari [8] hamda hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish muhim strategik vazifa hisoblanadi. Ushbu vazifani to'laqonli bajarish bugungi ta'lim tizimi zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi. Ijodiy loyihalar yaratish asosida foydalanilgan har bir asar o'ziga xos yondashuv va fikrlarni bizga taklif etdi, bu esa talabalar uchun muhim nazariy va amaliy tajribalarni amalga oshirishimizga yordam berdi. Ushbu asarlarni o'qish

orqali talabalar oilaviy hayotga tayyorlanishda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalar, zarur bilimlar va ma'naviy ahloqiy qadriyatlarni o'zlashtirishga erishdilar. Tadqiqot jarayonidagi ijodkorlik ruhi va motivatsion faoliyatli yondashuvlar talabalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Bundan tashqari, talabalar nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalar va hayotiy tajribalarni ham egallash bilan birga, ularda hayotda duch keladigan muammolarga tayyor turish, ularni ijobiy qabul qilish, murakkab vaziyatlarda ma'suliyatni o'z zimmasiga olish, doimiy pozitiv kayfiyatda irodasini mustahkamlashga o'rganish, sabr qilish, shukronalik bildirish, oldinga qarab harakat qilish, sog'lom faol hayot tarzini tanlash kabi ko'nikmalar tarkib topishiga muvaffaq bo'lindi. Bu esa, ularning oilaviy hayotga muvaffaqiyatli tayyorgarlik ko'rishlariga, baxtli va sog'lom oila qurishlariga, baxtiyor oila a'zosi sifatida qadrlanishlariga yordam beradi va kelajakdagi oilaviy munosabatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Sharq allomalari merosidan foydalanib talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash bir qator yo'nalishlarni o'zida aks ettiradi. Tadqiqotimiz davomida Sharq allomalari merosidan foydalanish orqali talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashda o'ziga xos bir qator yo'nalishlarda faoliyatimizni tashkil etdik Jumladan, (2.2.1-rasmga qarang).

Oilaviy-
ma'naviy
qadriyatlarni
shakllantirish

Sharq allomalari asarlaridagi oila, nikoh, tarbiya g'oyalarini o'rganish;

Talabalarda oilaviy-ma'naviy qadriyatlar, odob-axloq ko'nikmalarini rivojlantirish;

Nikoh, oila, farzandlar tarbiyasi haqidagi ta'limotlarni o'zlashtirishga yordam berish.

Oilaviy hayot
tayyorgarliginis
hakllantirish

•Talabalarda oilaviy munosabatlar, burch va ma'suliyatlarni anglash ko'nikmalarini rivojlantirish;

Oilaviy hayot mezonlari, qadriyatlar, an'ana va marosimlarni o'rgatish;

Oilaviy hayot maqsadlari, vazifalari, mohiyati to'g'risida tushuncha berish.

Amaliy
ko'nikmalarniri
vojlantirish

•Oilaviy-maishiy, mehnat, ta'lim va tarbiya sohalaridagi ko'nikma va malakalarni shakllantirish;

•Oilaviy munosabatlar, madaniyat, marosimlar, urf-odatlarni amalda qo'llay olish ko'nikmalarini rivojlantirish;

•Oilaviy hayotda o'z o'rnini topa olish, mas'uliyatli fuqaro bo'la olishlarini o'rgatish.

2.2.1-rasm. Sharq allomalari merosidan foydalanish orqali talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash yo'nalishlarining mazmuni

2.2.1-rasmda keltirilgan ushbu yo'nalishlar talabalarni hayotda oila qurish, tarbiya berish, boshqarish kabi vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishlariga yordam beradi. Talabalarning oilaviy

hayotga kompleks tayyorgarligini ta'minlashga yordam beruvchi ta'lim dasturlari belgilangan yo'nalishlar mazmuniga asoslanib tadbir etilishi ularning nikohgacha va keyingi oilaviy hayotlarida sog'lom, barqaror munosabatlarni shakllantirish imkonini yaratadi. Buning uchun yuqorida ta'kidlaganimizdek, talabalarni oilaviy hayotga tayyorlik ko'nikmalari rivojlantiruvchi (2.2.1-rasmga qarang) tegishli o'quv dasturlari, mashg'ulotlar va keng ma'naviy-axloqiy ta'lim zarur. **Abu Rayhon Beruniy: "Qadimgi xalqlarning odatlari"**: Oila va jamiyatdagi an'ana va qadriyatlarni o'rganish. **Ibn Rushd (Averroes): "Falsafa va diniy nazariyalar"**: Oilava ijtimoiy hayotdagi ahloqiy masalalar haqida. **Abu Nasr Farobiy: "Fozil shahar"**: Ideal jamiyat va oilaning ahamiyati, ijtimoiy ahloqiy qadriyatlar. Ushbu asarlar talabalar uchun oilaviy hayotga tayyorlanishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ular oilaviy qadriyatlar, tarbiya, ahloqiy masalalar va jamiyatdagi o'rni haqida chuqur tushuncha berishi mumkin. Talabalar ushbu asarlar orqali o'z oilalarini qanday boshqarish, ahloqiy qadriyatlarni qanday saqlash va o'zaro munosabatlarni qanday rivojlantirish haqida ko'plab qimmatli bilimlarga ega bo'lishadi. Oliy ta'lim jarayoni sifatini yangi bosqichga ko'tarish, o'quv jarayonida turli yondashuvlarni qo'llash, ta'lim oluvchilarda, avvalo, hayotiy ko'nikmalarni tarkib toptirishga yordam beradigan texnologiyalardan foydalanish, ta'limning xalqarolashuvdagi talablardan kelib chiqib, talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida mavjud bo'lgan yondashuvlar bugungi kun uchun ham doimiy ravishda dolzarb hisoblanib, yoshlarda quyidagi hayotiy ko'nikmalarni egallashni nazarda tutadi. Bu kabi yo'nalishlar talabalarda oilaviy hayotga doir amaliy ko'nikmalar va mahoratlarni rivojlantirish orqali ularning oilaviy hayotga tayyorgarligini ta'minlaydi. Talabalarni oilaviy hayotga tayyorgarligini baholovchi ko'nikmalar mazmuni quyidagilarda o'z ifodasini topadi [67].

1. Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish:

- oilaviy va nikoh oldi munosabatlarda samarali muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirish;
- o'zaro hurmat, empatiya, tinglash malakalarini rivojlantirish;
- oilaviy qarorlarni birgalikda qabul qilish, o'zaro qoniqarli yechimlarni topish usullarini o'rganish.

2. Oilaviy huquqiy savodxonlik:

- nikoh, ajralish, farzandlarni tarbiyalash, mulk va moddiy masalalar bo'yicha qonunlarni o'rganish;

-oilada zo'ravonlik, jinoyatlar, ijtimoiy muhofaza kabi huquqiy masalalarni o'rganish;

-oila va davlat o'rtasidagi huquqiy munosabatlar, davlatning oilani qo'llab-quvvatlash choralarni bilish. Bu yo'nalishlar talabalarda oilaviy hayotga doir amaliy ko'nikmalar va mahoratlarni rivojlantirish orqali ularning oilaviy hayotga tayyorgarligini ta'minlaydi. Bunday kompleks yondashuv talabalarni yetuk oila a'zolariga aylantirishga xizmat qiladi. Ularni sog'lom muhitga tayyor oila a'zosi sifatida shakllanishlari uchun imkoniyat yaratadi. Yuqoridagi kompleks yondashuv asosida talabalar bilim va amaliy ko'nikmalarni uyg'unlashtirish – ularni oilaviy hayotga tayyorlashning samarali yo'li hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yhati

1. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий ривожлантиришнинг назарий методик асослари. Дисс. ... пед. фан. докт. – Т.: 2007. – 315 б.
2. Дмитриева, Н. Формирование профессиональной компетентности будущего учителя начальных классов сельской школы // Дисс... канд.пед.наук / Н.Л.Дмитриева. - Великий Новгород, 2004. - 177с.
3. Hasaniy.M., Qilichev.K. Shayx Xovand Tohur.-T.:Imom Buxoriy Respublika ilmiy-ma'rifiy markazi,2004. -71b.
4. Hasaniy Mahmud.Al-Marg'inoiyning «Hidoya» asari va unga yozilgan sharhlar // Mas'ul muharrir: V. Nazarov.–T.: .Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2000.–48b.14b.
5. Behbudiy Mahmudxo'ja.Tanlangan asarlar.–T.:Ma'naviyat,2006.–280b.
6. Blifolt. R.Завоевание арабов. —М.:Znanie,1999.–271 s.
7. Алексеев Н.А. Профильное обучение в контексте личностно-ориентированного образования / Н.А.Алексеев. - Тюмень: Изд- во ЗАО «Легион-Групп», 2005. -250с.
8. Ахулкова, А.И. Технология формирования профессиональной компетентности будущих преподавателей педагогического колледжа : Дисс... канд.пед.наук / А.И.Ахулкова. - Курск, 2004. - 197с.
9. Kimsanova G.A., Alieva R.A. Influence of turkesterone and ecdysterone on alpha-amylase activity in growing rats. Molodoy Ucheny, 2020.